

GLOBALLASHGAN VA AXBOROTLASHGAN DAVRDA TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISHNING AHAMIYATI

Boliqulova Shoira Zaydinovna

*Samarqand viloyati Qoshrobot tumani 5-son B.M.S.Maktabi Tasviriy va amaliy san'at
o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda ta'lim jarayonida tasviriy san'atning dolzarbligi, muhim o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritilgan. Tasviriy san'at fanini o'qitishga doir ayrim fikr va mulohazalar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim jarayoni, tasviriy san'at, san'at maktabi, iqtidorli yoshlar, tasviriy san'at turlari, fan va integratsiya.*

San'at tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalarning badiiy tasvirlarda ifodalanishidir. San'at o'zida moddiy olamning umumiy holatini hamda rivojlanishini aks ettirish, odamlarga uni bildirishda muhim vosita bo'lish bilan birga, insonni siyosiy, axloqiy va badiiy jihatdan tarbiyalashning qudratli omili bo'lib xizmat qiladi. San'at voqelikni ifodalash uslubi, xarakteri, mazmuniga ko'ra, tasviriy san'at, me'morchilik, adabiyot, musiqa, sirk, teatr, kino, radio-televideniya kabi turlarga bo'linadi.

San'at insoniyatning ezgu niyatlarini, ulaming orzu-umidlarini to'la ifoda etadi. Shu boisdan xalqimiz o'z san'atini qanchalik ardoqlab, unga hurmat va ehtirom bildirsa, jahon xalqlari ham bugungi o'zbek san'atiga ana shunday ixlos va ehtirom bilan qaraydilar.

Pedagogika fanidan ma'lumki, metodika so'zi (uslub ifodasi) — "ifoda etish" ma'nosini anglatib, o'rgatiladigan o'quv materialini o'quvchilarga o'rgatish, o'qitish va o'zlashtirishning nazariy hamda amaliy asosi — faoliyat yoki uslubdan iboratdir. Tasviriy san'atda uslub rasmi chiziladigan obyekt, naturani yoki tahlil etiladigan san'at asarini o'quvchilarga tushuntirish yoki uning nazariy hamda amaliy asoslarini tahlil etib berish yoki o'rganishning yo'l-yo'riqlari demakdir. Tasviriy san'atni o'qitish uslubiyati kursi bolajak rassom — pedagoglarga maktabda tasviriy san'atni o'qitish va o'rgatishning eng oson, qisqa hamda ilmiy asoslangan uslubini o'rgatuvchi fandır.

Maktabda tasviriy san'atni o'qitish uslubiyati jahon pedagogikasi va psixologiyasi to'plagan tajribalariga tayangan holda, takomillashgan ish tajribalaridan unumli foydalanib olib borilmoqda. O'quvchilarga tasviriy san'at bo'yicha bilim-malaka berishda ulaming yoshi, bilimi, iste'dodi, qiziqishi albatta hisobga olinadi. B inobarin, jahon pedagogikasining atoqli namoyandalari Y.O.Komenskiy, G.Pestalotsi, K.D.Ushinskiy va N.Rostovsev, V.Kuzin, E.Shoroxov, R.Hasanov kabi pedagog-olimlarning ilmiy tadqiqotlari asosida maktab tasviriy san'ati o'quv predmetini o'qitish, unga qo'yiladigan talablar sistemali amalga oshirib kelinmoqda.

Ma'lumki, tasviriy san'at insonni mehnatga, tafakkur qilishga, ijodga, go'zallikni his qilishga chorlaydi. Kuzatishlar va ilmiy tadqiqotlar, tasviriy san'at yoshlarga faqat ilm-tafakkur, go'zal estetik ideallarni beribgina qolmay, insonning eng muhim jihatlarini, ya'ni



kuzatish, ko‘rish, idrok qilish hamda tafakkur-tasavvurlarini rivojlantiradigan asosiy vosita ekanligini isbotlamoqda.

O‘quvchilar tasviriy san’at mashg‘ulotlarida xilma-xil narsalar bilan tanishib, uning katta-kichikligi, shakli, undagi xunuk va chiroyli elementlarni aniqlaydilar, narsalar shaklini idrok etadilar, rang va tuslarini o‘rganadilar. Narsa shaklini idrok etish bilan birga, uni tahlil qilib, ong faoliyati asosida naturani tasvirga aylantirib, uni qog‘ozga joylashtirish mo‘ljallanadi. Shundan so‘ng natura tasviri daftar yuzasiga tushiriladi.

Tasviriy san'at darslarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish uchun quyidagi tavsiyalarni keltirishimiz mumkin:

1. Interaktiv taxtalardan foydalanish. Interaktiv taxtalar orqali rasm chizish, rasmlarni tahlil qilish, animatsiyalar yaratish va boshqa interaktiv faoliyatlarni tashkil etish mumkin.

2. Mobil ilovalardan foydalanish. Turli rasm yaratish, tahrirlash, animatsiya yaratish, kollaj yasash ilovalaridan foydalanish samarali bo'ladi.

3. Elektron doskalardan foydalanish. Elektron doskalar orqali o‘quvchilar bilan birgalikda kollektiv ravishda fikrlar almashish, eskizlar chizish, loyihalar muhokama qilish mumkin.

4. Prezentatsiyalar yaratish. Mavzular bo‘yicha taqdimotlar tayyorlash, multimediyali resurslardan foydalanish darslarni qiziqarli va mazmunli tashkil etishga yordam beradi.

5. Onlayn muzeylar va virtualda muzey turlarini taqdim etish. Onlayn muzeylar va virtual sayohatlarda turli me'moriy yodgorliklar, rassomlik asarlari bilan tanishish mumkin.

6. 3D modellashtirish dasturlaridan foydalanish. 3D modellashtirish vositalari orqali turli hajmiy shakl va kompozitsiyalar yaratish imkoniyati mavjud.

7. Ijodiy portfellar yaratish. O‘quvchilarning ijodiy ishlarini elektron portfelda to‘plash, ularga tegishli ma‘lumotlar bilan boyitish mumkin.

Ushbu texnologik yechimlardan samarali foydalanish tasviriy san’at darslarida innovatsion, interfaol va ma‘lumotlarga boy muhitni yaratishga yordam beradi.

Xulos qilib aytganda, tasviriy san’at ta’limi bolalarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi, kuzatish, tahlil qilish, yaratish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish bilan ahamiyatlidir. Muammolari hal qilish va innovatsion yechimlar topish qobiliyatini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I. Karimov. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. T.: “O‘zbekiston”, 1998- y.
2. I. Karimov. Barkamol avlod orzusi. T.: “O‘zbekiston”, 1999- y.
3. Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standard va o‘quv dasturi. 6- maxsus soni. T. 1999- y.



4. N.Rostovsev. O 'rta maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. M., 1980- y. (rus tilida).
5. N.Rostovsev. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi tarixi. 2 tomli. M., 1980 — 1982- y. (rus tilida).
6. R.Hasanov. O'zbekiston maktablarida badiiy ta'lim va tarbiya berishning metodik asoslari. T., 1990- y. (rus tilida).

